



## RAUF PARFI SHE'RIYATIDA BADIY TASVIR VOSITALAR

**Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna**

Tezmiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili  
va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10129917>

Rauf Parfi asl ismi Tursunali parfiyev bo'lgan atoqli ijodkor ,betakror so'z san'atkori XX asr o'zbek adabiyoti she'riyatida o'zining salmoqli she'rlari bilan dunyoning turli go'shalarida munosib o'ringa ega bo'lgan shoirlardab biridir. Rauf Parfi she'riyat maydoniga XX asrning 60-yillarida kirib keldi. Shoirning ilk kitobi 'Karvon yo'li' deb nomlandi va shoirning ilk kitobi kitobxonlarga iliq taassurot uyg'otdi.Ta'kidlash lozimki, shoirlar uchun birinchi kitob juda muhim bo'ladi. Shoir ahli qalbidagi hayajonli kechinmalari ularning ilk kitoblari bilan o'quvchilarning qalbiga yo'l topishi yoki , aksincha, yo'qotilishi mumkin. Rauf Parfi taqdiriga she'riyat muhlislarining qalbiga suyukli shoiri bo'lish baxti bitilgan ekan shunday baxtga muyassar ham bo'ldi.

Rauf Parfi she'riyati degan ta'birning o'zidayoq shoirning ijodiy faoliyati , mehnat yo'llari, adabiy merosi, go'zal va betakror she'rlari shoir ijodidagi badiiy tasvir vositalar to'g'risida mulohazalar yuritishga undaydi.

Shoir ijodida tabiat tasviri bevosita o'xshatishlar hamda tabiat va jonivorlarnijonlantirish orqali she'rning mazmun ko'lamini hamda tasvir emotsiyasini yuksaltirgan. Shoirning quyidagi misralarida tabiatning nodir mo'jizasi bo'lmish yomg'irni jonlantirish va o'xshatish orqali tasvirlab bergan;

Yomg'ir yog'ar , shig'alab yog'ar,

Oxir meni asir etar ul.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,

Yog'a boshlar qog'ozga ko'ngil.

Ha, har bir inson o'zining icgki kechinmalarini yuzaga chiqishida qandaydir voqea hamda hodisa sabab bo'lganidek, shoirning ushbu she'rda ham o'zining asir bo'lib oxiri bu tomchilab yog'ayotgan yomg'ir birma bir qog'ozga tushganligini mahorat bilan ta'riflaydi va bu yomg'ir shoirning ichki kechinmalarini, o'y-hayollari va qayg'u alamlarini bevosita jonlantirib baeradi.

Shoirning 'Yoz yomg'iri' she'rini o'qir ekamiz beixtiyor o'qigan har bir kitobxon qalbidagi bevosita bolalaik xotirotlar yodga tushadi, she'rdagi o'xshatishlar esa shoir she'rini yanada ta'sircganligini oshiradi jumladan;

Yoz kechasi. Osmon- falakda,

Kunduzning kitobi o'qildi.

Tars yorildi qovun palakda ,





Oltin shaftolilar to'kildi.

Shoir ushbu she'ridagi birinchi hamda ikkinchi misralardagi so'zlar tazod san'atini yuzaga keltirgan shoir tomonidan ajoyib tarzda bayon etlgan. Barchamizga ma'lumki, kechqurun tushsa kunduzning sarhisobi qilinib, kitobi yopiladai. Shoir ham shu o'rinda osmon -falakda kechqurun tushganligi va kunduzning yopilganini juda ajoyib tarzda ifodalaydi. Yoz faslida poliz ekinlarimiz g'arq pishib yetilganini va shaftolilarning oltin rangda ekanligini mohirona o'xshatishlar orqali tasvirlagan. Shoir yana shu she'rida;

Yoz yomg'iri iliqdir biram,  
Shitir- shitir uning qo'shig'i.  
Bir shirin hiid taralar yerdan,  
Va yurakka ketar qo'shilib.

Rauf Parfi ushbu misralarida yana tabiat mo'jizasi bo'lmish yomg'irga qaratadi va bu yomg'ir yoz yomg'iri va u o'zgacha ekanligini shitir-shitirlab mayin qo'shiq taralayotgandek tushunadi va eng asosiysi, yoz faslida yerning tafti issiq bo'lganligi uchun yerga tomchilgan yomg'ir tomchilari ta'riflab bo'lmas ajib xushbo'ylik baxsh etgani va bu xushbo'ylik yurakka qo'shilib ketishini ta'riflaydi.

To'g'risi, yozda yog'adigan yomg'irning gashti, ayniqsa, yomg'ir suvining tafti bo'lakcha. Shoirning nozik qalbi bu haroratni ham sezib turibti.

"Tong otmoqda" she'rida shoirning umidlari, yorqin tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. E'tibor berilsa, bunda quyosh zambarakka, uning zarrin nurlari o'qlarga qiyoslangan. Quyoshdan tinimsiz o'qlar yog'iladigo'yo. Aslida bu o'xshatishlar bejiz emas. Fizik qonuniyatlarga ko'ra, nurning zarralar ko'rinishida tarqalishi ham mavjud voqelikdir. Yer shari shoir tasavvurida o'sha zarralar oqimi - o'qlariyaralangandek ko'rinadi. Keyin shoir nigohi tabiat hodisasidan insonlarga ko'chadi. Tong pokizaligi odamlar qalbidga ko'chadi. Ammo Rauf Parfi she'rlari bir marta o'qib qo'yiladigan va darholo'qib olinadigandek sodda she'rlar emas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, Rauf Parfi tom ma'noda o'zini badiiy adabiyotga baxsh etgan samimiy ijodkordir. Shoir she'riyatining mazmun-ko'lami, teran undagi g'oyalar esa mustahkam. Shoirning har bir she'ri o'quvchi qalbiga o'zgacha taassurot uyg'otadi.

